
"YILNING ENG YAXSHI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI OSHPAZI" KO'RIK- TANLOVI BO'LIB O'TDI

Farg'ona viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasining 2022 yil 12 avgustdagi 97-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom bo'yicha belgilangan talablar asosida sog'lom va xavfsiz to'g'ri ovqatlanishni ta'minlash maqsadida Toshloq tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 15- KTIMTTda "Yilning eng yaxshi oshpazi" ko'rik-tanlovining tuman bosqichi o'tkazildi. Tadbirda tumandagi 22 ta DMTTlarning tajribali oshpazlari ishtirok etdi. Shartlarga ko'ra, har bir ishtirokchining bajargan ishlari Hakamlar xay'ati tomonidan baholab borildi.

Tanlov yakunida g'oliblar aniqlandi. Birinchi o'rin 26-DMTT oshpazi Odinxon G'aniyevaga, ikkinchi o'rin 15-KTIMTT oshpazi Munavvarxon Holiqovaga hamda uchinchi o'rin 29-DMTT oshpazi Gulbaxorxon Alijonovalarga nasib etdi.

G'oliblarga Viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi hamda tuman hokimligining esdalik sovg'alari topshirildi.

2022-09-08 15:32:20